



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA JISMONIY MADANIYAT FAKUL'TETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

5111700 BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT TARBIYAVIY
ISHI YO'NALISHI UCHUN “BOSHLANG'ICH TA'LIMNI
***INTEGRATSIYALASH*” FANIDAN “BOSHLANG'ICH TA'LIM**
***TIZIMIDA INTEGRATSIYA*” MAVZUSIDA TAYYORLANGAN**

REFERATI
REFERATI

TUZUVCHI:

O`QITUVCHI N.ABDUSAMATOVA

TAQRIZCHI:

**P.F.N. O`ASQAROVA
P.F.N. I. ULUXONOV**

NAMANGAN 2011 yil

MAVZU: BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA

REJA:

1. Boshlang'ich sinflarda integratsiya kursi asoslari
2. Boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari.
3. Integratsiya jarayonini o'rganishda buyuk pedagoglarning fikrlari.
4. Boshlang'ich maktabda integrativ ta'lim jarayonining uslubiy jihozlanishi.

Boshlang'ich sinflarda integratsiya kursi asoslari.

Ona tili, o'qish, tabiat, o'qish, tasviriy san'at, musiqa, matematika, mehnat, jismoniy tarbiya darslari integratsiyasi.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga etish ko'rib chiqiladi va mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolani mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi.

Ona tili, o'qish, matematika, mehnat darslari integratsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Masalan, "Kuz" mavzusi o'tilsa, mavzu o'qiladi, tushuntiriladi, hosil yig'ib olishga doir masalalar echiladi, mehnat darslarida mevalarni yasash mumkin. Shunda esa darsni mukammal o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi.

Masalan;

Bog'da o'quvchilar birinchi kuni 35 kg, ikkinchi kuni 45 kg olma terishdi. Hammasi bo'lib necha kg olma terishdi?

$35+45=80$ javob: 80 kg.

Bu masala asosida mevalar rasmini chizishlari mumkin. Bola bir darsning o'zida kuz haqida o'rgandi, mevalar haqida bildi va rasm chizdilar, kuz mevalari haqida masala echdilar. Shunday qilib o'quvchi birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldi va uzoq vaqt esda saqlab qoladilar deb o'ylayman. Matematika, jismoniy tarbiya, tabiat, musiqa darslari mujassamlashtirilsa foydadan holi bo'lmaydi. Musiqa eshitish, mavzu yuzasidan misol echish, narsalar yasash bular hammasi darsni yaxshi chiqishiga olib keladi deb o'ylayman. Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o'quv respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakillantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalash integrasiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtai nazardan juda muhim bo'lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Maktablarda o'rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko'rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ilm-fanida esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlari integrasiyasiga moyillik yuqori turadi.

Maktab umumta'lim fanlarining tarqoq holda o'rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda o'rgatilmasligi o'quvchilar bilimini to'la bo'lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to'sqinlik qilib, o'quvchilarda qiyinlik uyg'otadi.

Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi.

Bunday tushuncha ta'lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ta'lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin.

Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang'ich sinflarda darslarning integrasion bog'lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olishlarimiz o'rtasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'qitish jarayonida integratsiyani qo'llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji, asosiy va muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differentsiya bilan uzviy bog'liqdir. Bu uzviylik o'quvchilarda olayotgan bilimlarini anglashga bo'lgan intilishlari sistemasini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayt etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan.

Integratsiya jarayonini o'rganishda buyuk pedagoglarning fikrlari.

Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, huddi shunday holda o'rganilishi kerak".

Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi

va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmuning aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak".

I.V.Pestalossi o'zining didaktik maqolasida o'quv darsliklaridagi bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: "Bir-biri bilan bog'liq fanlari ongiga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla" -deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto havfliligini ta'kidlaydi.

O'tmish pedagogikasida didaktik ta'sirining ruhiy-pedagogik xususiyati hamda psixologik-pedagogik bog'liqlik to'g'risida K.D.Ushenskiy shunday deydi: "Har qanday fan tomonidan habar qilinayotgan bilim va g'oya dunyo va xayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim".

Fanlararo bog'liqlik nazariyasining ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqa va integrasiyaning maktablarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Pedagog olimlardan I.D.Zvernov, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranov, N.M.Skatkin; ruhshunos olimlar Ye.N.Kabanova-Miller, N.M.Polizina, Yu.A.Samarin, G.I.Vergelis; Metodist olimlar M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Yu.M.Kolyagina, G.N.Pristupa va boshqalar.

Bir qator ilmiy ishlar boshlang'ich maktablarda fanlararo va fanlar ichidagi bog'liqliklar muammosiga bag'ishlangan bo'lib, o'quv qo'llanmalari integrasiyasini asta-sekin yaratib, yo'lga qo'yish masalalariga qaratilgan masalan: T.L.Ramzayev, G.N.Akvilev, N.YA.Vinelkin, G.V.Beltyukov va boshqalar.

Integratsiya jarayoni o'rganishda I.Boguslovskiyning "Go'dakdan-olamga, olamdan-go'dakka" maqolasining ahamiyati katta. Unda aytilishicha: Bolalarning atrof-muhitni his qilish, unga o'rganish va maktab ta'limida bu muhitni turli fanlarga sun'iy ravishda bo'linishi turli hil qarama qarshiliklarga sabab bo'ladi.

Bunday qarashlar XIX asrning o'rtalaridayoq olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan edi. G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida (ayniqsa Germaniyada) umumlashtirilgan dasturlar tuzila boshlandi. Bu dastur mualliflari o'rgailayotgan hodisalarni mo'ayyan bir o'zak atrofiga jipslashtirishga harakat qiladilar. Ko'pincha bu o'zak atrof muhitni o'rganishdan iborat bo'lib, mehnat jarayoni va madaniyatini ham o'ziga birlaktirgan edi.

XIX asr va XX asr boshlarida integratsiya g'oyasi ilg'or g'oyalar qatori qadrlanadi. Nomdor ta'lim islohotchisi Dj.Dyun farzandni quyosh qatori qo'yib, uni pedagogika markazi deb, o'quv dasturlarini takomillashtirishning yangi prinsiplarini ilgari surdi.

Bunga "Go'dakdan-olamga, olamdan-go'dakka", tezisi misol bo'la oladi.

Keyinchalik markazlashtirilgan fanlar o'ziga bolaning ongini kengaytiruvchi mavzular paydo bo'ldi. Bola ulg'aygan sari uning dunyoqarashi kengayib, ongida oila maktab tuman shahar mamlakat insoniyat koinot kabi tushunchalar paydo bo'la boshlaydi va ilm darajasi ham o'sib boradi.

XX asr boshlarida pedagogika yo'nalishida bir nechta qiziqarli ishlar bilimlarni integratsiyalash yo'lida olib borildi. Bu yo'nalishda ayniqsa boshlang'ich ta'lim sohasida ilg'or siljishlar ro'y berdi.

Masalan: Pedagog-navator N.I.Papov rahbarligida ochilgan "Moskva shahri o'qituvchilari to'garagi" (1910-1915). Samarali ish olib bordi. Bu o'qituvchilar o'zlarining ish dasturlarini ishlab chiqdilar. Unda iloji boricha ko'proq fanlarni birlashtirib, integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish g'oyasi ilgari surildi. Bu holatda boshlang'ich maktablarda asosiy o'rinlarda ikki fan yo'nalishi turishi ko'zda tutilgan.

1. Tabiatshunoslik.

2. Jamiyatshunoslik

Bu fanlar bolalarda atrof-muhit bilan tanishish, odamlar, jamiyat, tashkilotlar hamda o'zining vazifalari bilan tanishishga yo'l ochib beradi.

Gumanitar va tabiiy fanlar bo'lmish tarix, geografiya, tabiatshunoslikni bir-biri bilan

chuqur va keng bog'liqliklari qayt etib o'tiladi.

Grammatika va arifmetika fanlari esa boshqa fan materiallari orqali birlashtirilishi ko'zda tutildi.

Bu bilan boshlang'ich ta'lim maktablarida o'z ichiga ko'p fanlarni mujassamlashtirgan bita fan –olamshunoslik (dunyoshunoslik) fanini o'qitish g'oyasi o'rta tashlanadi. Bu fan ta'lim-tarbiya yo'nalishida integrasiya yo'lini tugan asosiy fan hisoblanadi.

O'quv materiallarini integrasiyalash, fanlararo uzviylikni mustahkamlash va maktab islohati hususida 1915-16 yillarda xalq ta'limi yo'nalishida samarali ishlar olib borilgan.

Shu davrda o'quvchilarni atrof-muhit xayoti materiallarini o'zlashtirish va kuzatishag mo'ljallangan “Vatanshunoslik” kursini qo'llash nazarda tutilgan. Bunda tabiat, xayvonot olami, inson kabi tushunchalarni o'z ichiga olgan keng dastur mo'ljallangan. Birlashtiruvchi o'zak sifatida maktab ko'cha qishloq shahar viloyatlar olindi.

Lekin integrasiya muammosi o'zining yuqori pedagogik darajasiga 1920 yillarda yetdi.

Davlat olimlar kengashi fanlarni asosan uchta bloka ajratdilar. Bu bloklar bilimlar mazmunini yo'naltirishda katta ahamiyatga ega edi. Ular:

1. Jamiyatshunoslik.
2. Mehnatshunoslik.
3. Tabiatshunoslik.

Bunday holatda o'quv darslari integrasiyaga kirishib, o'zlarining xususiyatlarini yo'qotishadi yoki o'rta zvenoda qolib ketardi. Lekin o'zining mazmuni va jihatlari bilan umumlashgan mavzu: shahar kolxoz fabrika tushunchalarini o'zlashtirishda qatnashadi.

Bunday integrasiya yo'nalishi hamma fanlar uchun bir xil bo'lmadi. 1927 yilgacha tarix, geografiya va adabiyot fanlari jamiyatshunoslik faniga qo'shib yuborilgan edi.

Lekin 1930 yillar boshlarida bunday novoshirlik, pedagogik izlanishlarga chek qo'yildi.

Maktab tizimi an'anaviy alohida fanlar ta'limi sisteasiga qaytdi. Albatta, ba'zi ba'zida oldingi kurslar va fanlararo bog'liqliklarga qaytishga chaqiriqlar bo'lib turdi.

Adabiyot darsida o'qituvchi L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” asarini o'qitish jarayonida 1912 yilgi Ulug' Vatan Urushini L.Tolstoy o'ylab topmagan desa, shuning o'zi kifoya qilardi. Tarix o'qituvchisi esa ushbu voqealarga qiziqqanlarga asarni o'qib chiqishni maslahat beradi.

Fanlararo integrasiyaning yuqori cho'qqisi deb jamiyatshunoslik darsidagi “Materiya” mavzusini tarix, fizika va Kimyo fanlari o'qituvchilari bilan o'tkazish hisoblanadi.

Huddi shunday konyuktor-ideologiya integrasiyasi sanooat ishlab chiqarish korhonalarida, qishloq ho'jaligida nazariy bilimni ishlab chiqarishdagi mehnat va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda qo'llanadi.

80-yillarning yarmidan maorif tizimida integrasiya masalasiga yondoshuvlar yana rivojlandi. Bunda asosan 4 ta yo'nalishga e'tibor qaratildi. Ularni birlashtirishda mazmun jihatdan integrasiya manbalarini alohida fanlar tashkil etadi.

Integrativ manbada hamma fanlar rivojlanayotgan ijod mahsuli sifatida hal qilinishi, texnologik integrasiya asosga umumta'lim jarayoni kompyuterlashtirish yo'nalishiga o'tish, dars jarayonida hamma o'qituvchilar uchun aktiv bo'lgan usulda o'qitish usullarini va sintetik harakterga (Dunyo badiiy madaniyatiga) ega bo'lgan darslarhamda sun'iy ravishda barpo etilgan metopredmetlar (belgi, son, simvol) bo'lishi nazarda tutilgan.

Shunday qili bo'quv materiallarini integrasiyalashga bo'lgan intilish butun Dune va bizning maorif tizimimizda asosiy e'tiborda turgan muammolardan biridir.

Hozirgi vaqtda ham integrasiya muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda maktablarda integrasiya deganda biz yangi aktiv pedagogik izlanishlarni, pedagogik jamoada ijodiy o'sishni, o'quvchilarga foydali, o'quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini qo'llash mahoratini tushunamiz.

Boshlang'ich maktabda integrativ ta'lim jarayonining uslubiy jihozlanishi.

Hozirgi kunda lug'atlarda integratsiya so'zining uslubiy ma'nosi ko'rsatilmagan. Lekin hammaga ma'lum lotincha so'z “Integratio” tiklanish, to'ldirish,

“integrir” - bir butun ikki ma`noda foydalanishga qabul qilingan.

- 1) Qandaydir qismlar elementlarni bir qilib birlashtirish.
- 2) Ikki yoki undan ko`p davlatlar bir turdagi ijtimoiy tuzimga ega bo`lgan bo`lsa, iqtisodiy yoxud madaniy jihatdan uyg'unlashtirish jarayoni.

Bir turdagi qism yoki elementlar mavjudligi va ularning bir maqsadga tabiiy bo`ysundirish imkoni va bir qator o`quv fanlari uslubidagi yaqinlik integratsiya atamasini aniqlashga asos beradi, ya`ni o`qitish, tarbiya qilish va o`quvchilarni ma`lum o`quv fanlarini o`zlashtirishni uyg'unlashtirish usullari haqidagi fan. Integratsiya-ni uslubiy hodisa sifatida tahlil qilib bergan «Qanday qilib integrirlangan darsni tashkillash mumkin?» nomli maqola mualliflari I.Kalojvari va L.Pechnikova ta`kidlashlaricha: «Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o`quvchilar ongida olamning faol va ko`p tomonli tasviri shakllanadi. O`quvchilar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishga boshlashadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o`zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo`lgan munosabatini ravshanlashtiradi».

Maktabda mavjud hamma fanlar o`ziga xos integratsion imkonga ega. Lekin ularning bir-biriga mos bo`lishi integrirlangan kurslarning samaradorligi ko`p sharoitlarga bog`liq. SHuning uchun yangi dastur yaratishdan oldin pedagoglar va uslubchilarga integratsiyaning imkoniyati va zaruriyati xulosa ishiga yordam beradigan vaziyatlarni hisobga olish kerak.

Buning uchun o`qituvchi sinf o`quvchilarining tayyorgarlik darajasini oldin tahlil qilishi, ularning ma`naviy xususiyatlarini, o`rganishga qiziqishlarini o`rganadi. O`quv faoliyatida mavjud bo`lgan qiyinchiliklar integratsiya usulidan foydalanish sabablaridan biri bo`lishi mumkin. Ba`zi o`quvchilarning bir fandagi muvaffaqiyati ikkinchi fandan olgan bilim va ko`nikmalariga bog`liq bo`lishi mumkin.

Masalan: o`quvchi savodli va tez matn ko`chirishga tez va to`g`ri o`qishi bog`liq. Lekin agar aniq bo`nday hamkorlik ko`rsatilmasa ham yoki umumiylik bo`lmasa bir fan rejasidagi mazmunga to`g`ri baho bersa o`qituvchi alohida dars berishini etarli emasligini ko`rish mumkin. Biz bilamizki, dunyo bir, u sanoqsiz ichki aloqalar bilan bog`langan, shuning uchun bitta muhim masalani, boshqa ko`pgina masalalarga tegmasdan echish qiyin. Shunga o`xshash solishtirishlar integratsiyaga asos bo`la oladi. Bir qator fanlarning dasturlarida «**chorrahalar**» bor, ya`ni umumiy muomala va masallar bilan bir bo`lgan, tez-tez bir hodisa, ya`ni boshqa-boshqa nuqtalardan bir ob`ektni o`rganiladi. Bularning barchasi integratsiyaga talabnoma.

Lekin birlashtirish asosi juda chuqur. Agar o`qituvchi o`zi dars berayotgan fandan shunday o`zaro muloqotga oid joylarini aniqlasa ular o`z navbatida o`qitish samaradorligini oshirishga yordam berish mumkinligini aniqlasa qo`yilgan maqsadga erishish uchun uning texnologiyasini ishlab chiqish kerak. O`qituvchi va o`quvchi faoliyatining tashkillanishini hisobga olsak integrirlangan dars sharoitida u tez-tez bahs va kelishmovchilikka sabab bo`ladi.

Tabiiyki, har bir sinfda o`quvchilar guruxdari bor. Ular bir-birlaridan xotira turlariga ko`ra farq qilishadi, qabul qilish, diqqat jihatidan farqlanadi.

Ularning ba`zilari o`qituvchi olib borgan dars tezligi qoniqtiradi, kimgadir tezlik qiladi. Kimgadir darsda ishlatilgan jadval tushunarli, boshqalari qayta-qayta izohlagandan keyin tushunadi.

Mustaqil tashkiliy ish o`quvchilarning imkonlarini bir oz tenglashtiradi, chunki har biri o`ziga xos qarorni tanlashga yo`l izlaydi, lekin albatta bir muammo qoladi - o`quvchiga qo`yilgan maqsadni topishga qanaqa usul, vosita bilan qurollantirish kerak. Darsning cheklangan vaqti ham, har bir o`quvchining topshiriqni bajarish vaqti ham mos emas, lekin ularning faoliyatini ta`minlovchi yagona shaxs — o`qituvchi.

Integrirlangan darsning xususiyati bu jarayonda 2 yoki 3 ba`zida undan

ham ko'p pedagoglar qatnashishi mumkinligi. Bunday integrirlangan darsni o'tish osonmi, murakkabmi? Ko'pincha o'qituvchilarga bog'liq. Lekin, dars bu ishning muhim qismi ekanligini unutmaslik kerak. Aynan dars orqali asosiy masalalar integrirlangan kursda amalga oshiriladi va natija omadli yoki omadsiz bo'lishi mumkin.

Lekin integrirlangan dars tushunchasi hamon bahsli bo'lib qolmoqda. Integratsiyalangan darsning belgi-alomatlari qanday?

- 1) Integrirlangan kursning o'zi yangi murakkab birlik bo'lib, umuman boshqacha shaklda bo'ladi hamda masalalarni aniq va samarali echishga qaratiladi.
- 2) Ular 2 yoki 3 ta fan asosida rejalashtiriladi. Shuning uchun bir nechta o'qituvchi yoki bir nechta o'quv fanlari materiali mexanik usulda birlashtiriladi.
- 3) O'rganishga qiziqish jarayonini faollashtirishning usullari, malaka va ko'nikmalari ishlab chiqiladi.

O'qituvchilar darsni birga yoki alohida o'tkazishlari mumkin, lekin natijalar umumiy harakatlar orqali echiladi. Ko'pincha 5-sinfda yangi o'qituvchilar kirishadi va o'quvchilarga turlicha talablar qo'yishadi, ancha vaqt qiynalishadi. Bundan ko'rinadiki, maktablarimizda pedagoglarimiz umumiy ta'lim siyosatiga ega emaslar, bir jamoa bo'lib harakat qilishmaydi. Integrirlangan darsning chegarasida o'qituvchilar oldindan nima muhim, nima ikkinchi darajali ekanini aniqlashlari lozim. O'quvchilar bu darsda o'z ishlarini lo'nda va aniq ifoda etishni, og'zaki savollarni to'g'ri tuzishni, o'z-o'zini nazorat qilishni, o'ziga baho qo'yishni o'rganishi kerak. O'qituvchilar ana shunday hamkorlik asosida tuzilgan darslar integrirlangan bo'ladi, lekin ular asosida o'rganilgan material bir-biri bilan hamohang bo'lmaydi. Bunday darslarni integratsiyaning 1-darajasiga kiritish mumkin.

2- va 3-darajali integratsiyali eng keng tarqalgan darslar.

2-daraja deb tushuncha ma'lumotli o'quv fani M: Takrorlash darslariga qo'shimcha kiritish, mavzuga qo'shimcha material tanlash.

3-darajada solishtirish umumlashirishda gap materialni o'rganish masalalari bilan bog'liq. O'quvchilar hodisa va ob'ektlarni solishtirish va taqqoslash bilan bog'laydilar. Bunday darsda 2 ta o'qituvchi ishtirok etishi mumkin.

Eng chuqur deb integratsiyaning 4-darajasi olinadi. O'quvchilar faktlarni solishtira boshlashdi, bitta hodisani, voqeani muhokama qilishadi, ular orasidagi aloqalarni aniqlashadi, hamkorlikda o'quv ko'nikmasini birgalikda ishlab chiqishadi.

Integrirlangan dars maqsadi yuqoridagilarda qamrab olingan jarayon nazorat qilinadi. Qo'yilgan fikrlarni shakllantirish o'quvchining talabiga, qiziqishi, intilishiga ko'ra rivojlantiriladi. O'qituvchilar va o'quvchilar orasida taqsimlangan vazifalarni hisobga olinganda integrirlangan darslar har xil shaklga ega,

noan'anaviy

M: 1) Bilim almashish darsi.

O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Har xil mavzularda topshiriq berilib, bir-birlariga xabar beradilar. Bunday shakl o'quv fanlar bir-biriga o'xshash bo'lganda eng samarali.

- 2) **O'zaro tekshirish darslari.**

Guruh va juftliklarda ish olib boriladi. U o'quvchilardan yaxshi tayyorgarlik talab qiladi. Faoliyatning hamma turlarida ob'ektiv va aniq baholash talab etiladi. Sinfdoshlarining bilimlarini tekshirganda har bir o'quvchi ko'rsatkichlari jadvali bo'lishi shart.

- 3) **Ijodiy izlanish darsi.**

O'quvchilar o'zlari mustaqil tarzda muammoning echimini izlashadi. Lekin izlanish uslublari o'qituvchi tomonidan ilgari o'tilgan darslarda ko'rib chiqilgan bo'ladi. Bunday dars samarasi yuqori bo'ladi.

- 4) **Ro'znoma chop etish, ilmiy almanax (nashr) darsi.**

Ma'lum bir mavzuga asosan guruhlarga ijodiy topshiriqlar beriladi. Ish natijasi gazeta yoki al'manax. Ish natijasi nazorat ishlari yoki ijodiy ishni himoya yoki joriy imtihon qilib o'tkazilishi mumkin.

Mavzu asosan suhbatlar, muammoli masallarni echish, tanlov, kim oshdi savdosi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlari kam. Nimani integrirlash kerak? Qanday? Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga integrirlangan darslarga o'tish oson, chunki bir o'zi hamma fanlarni o'qitadi. O'quvchi qanchalar yosh bo'lsa, u shuncha kam biladi. Shuning uchun oshlang'ichda integratsiya imkonlari chegaralangan. Boshlang'ich ta'limda amalda ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish va rivojlantirish kerak. Boshlang'ich ta'limda integratsiya «oz-oz hamma narsadan» usuliga ega. Bolalar boshlang'ich ta'limda juda ko'p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to'g'risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to'ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o'qituvchi bir xillikdan qochishi va rang-barang shakl va usullarda dars o'tishi talab etiladi.

Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o'quvchilardan oladi faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Lekin 1-2-sinflarda integratsion darslarga uncha berilmaslik tavsiya etiladi. Chunki bolaning bilim zapasi ko'p emas, grammatik, matematik va texnik ko'nikmalari shakllanib ulgurmagan.

Chunki integratsiya mavjud mavzuni kengaytiradi, chuqur tahlil qilishni talab qiladi, hodisalarni umumlashtiradi, ularning bilim doirasi boshqa fanlar hisobiga kengayadi. O'quvchilar mustaqil tarzda shuncha ishni bajarishga kuchi etmasligi mumkin.

O'z navbatida o'qituvchiga juda ko'p talablar qo'yiladi. Integrirlangan dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi. O'z darsida o'qituvchi quyidagilarni e'tiborga olishi kerak.

1. Dars maqsadi (bu mavzuni o'rganish muddatini hujjati bo'lsa qisqartirish, o'quvchi bilimini kamolotiga yo'naltirish va boshqa).
2. Ob'ekt tanlash, ya'ni yangi ma'lumot manbalarini, ularning dars maqsadiga javob berishi inobatga olinadi.
3. Tizimlashtiruvchi omillarni aniqlash, ya'ni har xil fanlarning ma'lumotlarini birlashtirish uchun asos topish (fikir, hodisa, tushuncha, fan).
4. Kursning yangi tizimini yaratish. Bilimlarning funktsional yo'nalishini o'zgartirish.
5. Mazmunni qayta ishlash. eski shakllarni buzish, tizimda alohida bo'lgan elementlar orasida aloqalar yaratish.

O'qituvchi qachon va qanaqa fanlarni integrirlash mumkin yoki integrirlash shartligini bilish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda dars samaradorligiga erishish uchun integrirlashga e'tibor berishi shart. E.Smironova «Bo'lmasdan egalik qil» maqolasida shunday deydi:

«Birinci sinfda quyidagi fanlarni integrirlash mumkin: o'qish, yozuv, tasviriy san'at va mehnat. Faqat o'qish va faqat yozish bolani juda charchatadi va unda salbiy tuyg'ularni uyg'otadi. 1-sinf o'quvchisida birinchi darslardayoq o'qishga bo'lgan istak yo'q bo'lmasligi kerak. Uning ko'zlaridagi uchqun o'chmasligi kerak. Yuqorida aytib o'tilgan fanlarni tartiblashda o'quvchining o'rganish jarayonini, qiziqishini ushlab turish, faollashtirishga e'tibor beriladi».

2-sinfda o'qish, ona tili, tabiatshunoslik va tasviriy san'at fanlarini integrirlash mumkin.

3-sinfda fanlarni integrallash imkoni bor variantlaridan foydalanish mumkin.

Ta'lim tizimida ilgari integrirlangan kurslar borligini unutmaslik kerak. M: Savodxonlik darslari o'qish va yozuv K.D.Ushinskiy davridanoq integrirlanib o'tiladi. Hozir 1-sinfda yarim yillikda o'qish va yozuvga o'rgatiladi. Sinfdan tashqari o'qish ham integrirlangan. Bunda bir butun jarayon: kitob-o'qish jihozi sifatida, darsda olgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, matn-so'z san'ati sifatida, nutqning rivojlanishi, kitob olami, suhbatdoshlar doirasi sifatida.

Azaldan tabiatshunoslik integrirlangan: tabiatshunoslik va geografiya.

Matematika asli arifmetika, algebraning elementlari, geometriya, arifmetik materiallar yaxshiroq o'zlashtirishga ko'maklashadi. Shu bilan birga algebrani, geometriyani, mehnat ta'limi o'rganishga asos soladi.

Yuqorida aytilgan integrar kurslarni o'qish - ona tili, o'qish - tabiatshunoslik, o'qish — tabiatshunoslik, o'qish — tasviriy san'at, o'qish - tabiatshunoslik - tasviriy san'at, ona tili - o'qish -tasviriy san'at, o'qish — tabiatshunoslik — mehnat, ona tili -tabiatshunoslik - tasviriy san'at kabilarga birlashtirish mumkin.

Integrirlangan darsning asosiy xususiyati bunday dars bir fan asosida tuziladi, u asosiy e'tiborda bo'ladi, qolganlari u bilan birga integrirlashadi, uning aloqalarini, jarayonlarni o'rganishda fanning ma'nosini tushunishda, hayot bilan aloqasini tushunishda, olingan bilimni amalda ishlatishda qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekistoi taraqqiyotning poydevori. T.SHarq. 1997y.
2. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar. 2003y.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000y
4. Yo'ldoshev J. Xorijda ta'lim. Integratsiyalashgan va maxsus kurslar. T, «SHarq» 1995.
5. O'.AsqarovaG. G.Egamberdieva Boshlang'ich ta'limda integratsiya.Namangan-2007y
6. R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogika "ILM ZIYO" 2009 y